

Aleksandr Pushkin



KAPITAN QIZI

O'YLAYMAN – ERK OLAY,
BO'G'LANIB QOLMAY!



YANGI ASR AVLODI

TOSHKENT

2017

UO'K: 821.161.1-1

KBK: 84(2Ros=Rus)1

P-96

Pushkin, Aleksandr

Kapitan qizi: qissa va she'riy roman. Aleksandr Pushkin / Tarjimonlar Abdulla Qahhor, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 352 b.

ISBN 978-9943-20-234-4

Pushkinning rus madaniyati taqdiridagi o'рни benihoya buyuk. U yangi rus adabiyotiga asos solish bilan birga rus adabiy tilining shakllanishiga ulkan hissa qo'shdi. Shu boisdan uni o'z xalqining jonkuyar iste'dodi sifatida ulug'laydilar. Shaxsiy hayotidagi notinchliklar, surgundagi adib ijodiga ta'sir qilmay qolmadi. Ruhiy ezilish, tushkunlikka qaramay Aleksandr Pushkin ketma-ket she'rlar, dostonlarni e'lon qiladi. O'z asarlarida inson erki, ozodligi, qadr-qimmatini, xalqiga xos fazilatlarini, tili va yurtiga muhabbati mavzularini tarannum etadi.

E'tiboringizga havola etilayotgan kitobga biz ko'pchilik tomonidan so'ralgan «Yevgeniy Onegin» va «Kapitan qizi» asarlarini jamladik. Bu asarlar o'zbek kitobxoniga juda ham tanish, o'zbek adabiyoti rivojida yangi yo'nalish paydo bo'lishida ham Pushkin ijodiy merosi yetakchi ahamiyatga ega. Bugungi kun o'quvchisiga ham ilinayotganimiz mazkur kitob kitobxonning adib ijodiga yaqinroq bo'lishida debocha bo'ladi, deb umid qilamiz.

UO'K: 821.161.1-1

KBK: 84(2Ros=Rus)1

Tarjimonlar:

Abdulla Qahhor

Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek

ISBN 978-9943-20-234-4

© Aleksandr Pushkin, «Kapitan qizi». «Yangi asr avlodi», 2017-yil.

Nomusni yoshlikdan ehtiyot qil.
Maqol

BIRINCHI BOB

GVARDIYA SERJANTI

– Ertagayoq gvardiya kapitani bo'lsaydi.
– Unaqaga hojat yo'q: xizmat etsin qo'shinda.
– Tuzuk gap! Mayli, u ham andak azob chek-sin-da...

.....

Ha, otasi kim o'zi?

Knyajnin¹

Otam, Andrey Petrovich Grinyov, yoshligida graf Minix² huzurida xizmat qilgan va premyer-mayor bo'lib, 17...-yilda xizmatdan chiqqan. Shu vaqtdan boshlab, Simbirskdagi o'z qishlog'ida turgan va shu qishloqlik kambag'al bir dvoryanning qizi Avdotya Vasilevna Yu. degan qizga uylangan. Biz to'qqiz bola bo'lganmiz. Opa va akalarim bolalikda o'lib ketishgan. Yaqin qarindoshimiz gvardiya mayori knyaz B. ning iltifoti bilan men Semyonov polkiga³ serjantlikka yozdirilgan ekanman. Men tahsilni tamom qilgunimcha polkda ta'tilda deb hisoblanganman. U zamonda biz hozirgidan boshqacha tarbiyalanar ekanmiz. Besh yasharligimda jilovdor Savelichning qo'liga topshirilganman. Bu odam tavrifiqli, tadbirli kishi

bo'lgani uchun menga og'a etilib tayinlangan. Uning qaramog'ida o'n ikki yoshimda ruscha xat-savod chiqardim va ildam ovchi itlarning xususiyatlari haqida bahuzur muhokama yurgizadigan bo'ldim. Shu vaqtda otam Moskvadan mose Bopre degan bir fransuzni menga murabbiy qilish uchun, bir yilga yetarli vino va zaytun yog'i bilan birga oldirib keltirdi. U odamning kelishi Savelichga hech yoqmasdi. U o'zi-cha: «Xudoga shukur, bolaning ust-boshi toza, o'zi ozoda, qorni to'q bo'lsa, ortiqcha chiqimdor bo'lib, bu moseni oldirish nima hojat edi, go'yo bu yerda odam qurib ketganday-a!» deb do'ng'illadi. Bopre o'z yurtida sartarosh, so'ngra Prussiyada soldat bo'lib, undan keyin Rusiyaga pour être outchitel⁴ kelgan, lekin bu so'zning ma'nosiga o'zi ham uncha tushunmagan ekan. U xushfe'l, muloyim, ammo o'lguday yengil tabiat, buzuq odam edi. Uning eng zaif tomoni xotin-xalajga o'chligi edi; shu fe'li tufayli ko'pincha turtki yeb, kechalari inqillab chiqardi. Yana (o'zining aytishicha) shishaning ham dushmani emasdi, ya'ni (ruscha aytganda) bir qultum ortiqroq yutishni yaxshi ko'rardi. Biznikida vino faqat ovqat mahalida va shunda ham bir ryumkadangina berilgan va ko'pincha muallimlarga berilmagani uchun mening Boprem hademay rus arag'iga ham mijoz bo'lib qoldi, hatto bu araqni me'daga foydaliroq hisoblab, o'z yurtining vinosidan ham a'loroq ko'radigan bo'ldi. Biz tez fursatda inoq bo'lib ketdik, garchi shartnomaga ko'ra, u menga fransuz, nemis tillari va boshqa ilmlarni o'rgatishni o'z ustiga olgan bo'lsa-da, lekin mendan tez orada uncha-muncha ruscha o'rganib olishni afzalroq ko'rди, keyin har qaysimiz o'z ishimiz bilan mashg'ul bo'lavardik. Biz juda qalin bo'lib ketdik. Menga boshqa domlarning keragi ham yo'q edi. Biroq taqdir bizni



bir-birimizdan ayirdi, ayrilishimizning sababi bunday bo'ldi:

Palashka degan semiz, cho'tir kirchi qiz bilan sigir sog'uvchi Akulka degan qiyshiq xotin ikkovi, bamaslahat validamning oyog'iga yiqilib, o'zlarining nodonliklari orqasida katta gunoh qilib qo'yganliklari uchun afv so'rganlar va musye ularni tajribasizliklaridan foydalanib aldaganini yig'lab siqtab arz qilganlar. Onam bunaqa ishlar to'g'risida juda qattiqqo'l edi, otamga shikoyat qilibdi. Otamning jahli yomon edi. U darhol shum fransuzni chaqirtiribdi. Musye o'g'lingizga dars berayotibdi deyishibdi. Otam mening hujramga kirib keldi. Bopre shu chog' dong qotib uxlab yotgan edi. Men o'z ishim bilan band edim. Shuni aytish kerakki, menga Moskvadan geografiya kartasi oldirilgan. Bu karta bekorga devorda osilib yotar va ko'pdan beri uning qog'oziga suqlanib yurar edim. Men shu qog'ozdan parrak qilmoqchi bo'lib, Boprening uyquda ekanini g'animat bilib, ishga kirishgan edim. Varrakni yasab, Dobraya Nadejda burniga endi dum bog'layotganimda otam kirib keldi. Mening geografiya mashg'ulotimni ko'rib, qulog'imni cho'zdi, so'ngra yugurib Boprening yoniga bordi va uni dag'al uyg'otib, koyiy boshladi. Bopre gangib, o'rnidan turmoqchi bo'lgan edi, tura olmadi, bechora fransuz o'lguday mast edi. O'n baloga bir davo deganlar. Otam uni yoqasidan ushlab, karavotdan turgizdi-da, eshikdan uloqtirib yubordi va shu kunning o'zidayoq, Savelichning baxtiga, uni uydan haydadi. Shu bilan mening o'qishim ham tamom bo'ldi.

Men hali voyaga yetmagan⁵ bola bo'lib, kunim kaptar uchirib, hovlidagi bolalar bilan sakramachiq o'ynab o'tardi. Shunday qilib, o'n olti yoshga ham to'ldim. Endi taqdirim o'zgacha bo'ldi.

Kuz kunlarining birida onam mehmonxonada asaldan murabbo qaynatar, men esa tamshanib, qaynayotgan ko'pikka qarab turardim. Otam deraza yonida o'tirib, har yili keladigan Saroy Kalendarini⁶ o'qirdi. Bu kitob unga hamma vaqt zo'r ta'sir qilardi. Bu kitobni u sira sovuqqonlik bilan o'qiy olmas, bu o'qish hamisha uning zardasini qaynatib yuborardi. Uning fe'l-atvorini yaxshi bilgan onam mudom bu kitobni iloji boricha panaroq yerga yashirishga tirishar, otam ba'zan oylab bu Saroy Kalendarini ko'rmasdi. U Saroy Kalendarini topib olguday bo'lsa, soatlab qo'lidan qo'ymas edi. Otam kalendarni o'qir ekan, ora-sira yelkasini uchirib, o'zicha: «General-poruchik!.. U mening, rotamda serjant edi!.. Har ikki rus ordenining kavaleri!..⁷ Xo'sh, biz qachondan beri...» deb qo'yar edi. Oqibat, otam kalendarni divanga qarab uloqtirdi-da o'yg'a botdi, uning bu avzoyi yaxshilik nishonasi emas edi.

U to'satdan onamga qarab: «Avdotya Vasilevna, Petrusha nechaga kirdi?» deb so'radi.

– Mana endi o'n yettiga qadam qo'ydi, – dedi onam, – Petrusha Nastasya Gerasimovna xolaning ko'zi ojjiz bo'lgan yili tug'ilgan edi, u tug'ilganda hali...

– Xo'p yaxshi, – dedi otam uning so'zini bo'lib, – xizmat qiladigan vaqti yetibdi. Oqsochlar bo'lmasida yugurib-yo'rtgani, kaptar bola tutgani bas.

Tez fursatda mendan ayrilib qolishini eshitib, onam shunday hang-mang bo'ldiki, qo'lidagi qoshiq kastryulga tushib ketdi, ko'zidan duv-duv yosh to'kildi. Men, aksincha, tasvir etib bo'lmaydigan darajada sevindim. Xizmat deganda erkinlik haqidagi fikrlar, Peterburg hayotining huzur-halovati ko'z oldimga kelar edi. O'zimni gvardiya ofitseri xayol qilaman, ofitserlikni esa kishi saodatining eng yuqori cho'qqisi deb bilar edim.

Otam o'z niyatini o'zgartirishni ham, uning ijrosini keyinga qo'yishni ham xohlamas edi. Ketish kunim belgilandi. Ketishimdan bir kun ilgari otam, bo'lajak nachalnigimga men orqali xat yubormoqchi ekanini aytib, qalam bilan qog'oz so'radi.

– Kiyaz B. ga mendan ham salom aytishni esingdan chiqarma, Andrey Petrovich, – dedi onam, – Petrushadan marhamatini darig' tutmasligiga ishonaman dedi, deb yoz.

– Behuda gapni qo'ysang-chi! – dedi otam qovog'ini solib, – nega men knyaz B. ga xat yozar ekanman?

– O'zing Petrushaning nachalnigiga xat yozaman deding-ku.

– Xo'sh, degan bo'lsam nima?

– Axir Petrushaning nachalnigi knyaz B.-da. Petrusha Semyonov polkiga yozdirilgan edi-ku.

– Yozdirilgan emish! Yozdirilgan bo'lsa menga nima? Petrusha Peterburgga bormaydi. Peterburgda xizmat qilib nima o'rganadi? Bekorga sanqish, laqillashnimi? Yo'q, askar bo'lib xizmat qilsin, askarlik jabdug'ini ko'tarsin, porox hidini hidlasin, soldat bo'lsin, takasaltang emas! Gvardiyaga yozdirilgan emish! Qani uning pasporti? Menga ber.

Onam, bolaligimda kiygizib cho'qintirilgan ko'y-lagim turgan sandiqchasini titib, pasportimni topdi va qo'li qaltirab otamga uzatdi. Otam pasportni diqqat bilan o'qidi, so'ngra oldiga, stol ustiga qo'ydi-da, xat yozishga kirishdi.

Peterburgga yubormasa qayoqqa yuborar ekan? Shuni bilish orzusi meni qiynar edi. Ikki ko'zim otamning imillab qimirlayotgan perosida edi. Oqibat xat bitdi. Otam uni pasport bilan bir konvert-ga soldi, ko'zoynagini olib, meni yoniga chaqirdi va: «Mana senga xat, buni mening qadrdon o'rtog'im va do'stim Andrey Karlovich R. ga ber. Sen Oren-

burgga, shu kishining qoʻl ostida xizmat qilishga borasan», – dedi.

Shunday qilib, porloq umidlarim puchga chiqdi. Quvnoq Peterburg hayoti oʻrniga meni uzoq va chet yerda zerikish, diqqinapaslik kutardi. Bundan bir daqiqa ilgari shu qadar xursandlik bilan oʻylaganim xizmat, endi koʻzimga katta bir falokat boʻlib koʻrindi. Endi nima ham deyma! Ertasiga ertalab eshik oldiga soyabon arava keldi; jamodan, choy anjomlari solingan sandiqcha bilan bulka va piroglar tugilgan tuguncha unga joylandi, bular uydagi erkalgimning soʻnggi alomatlari edi. Ota-onam fotiha berishdi. Otam xayrlashar ekan: «Xayr, Pyotr. Xizmatini qilishga ont ichgan kishingga sidqidil bilan xizmat qil; boshliqlarning gapiga quloq sol; ularning shirin soʻzlariga uchma; xizmatda amal tama qilma; xizmatdan qochma; kiyimni yangiligidan, nomusni yoshlikdan ehtiyot qil degan maqolni hamisha yodingda tut». Onam, koʻziga yosh olib, menga oʻz sihatimni saqlashni, Savelichga mendan boxabar boʻlishni tayinladi. Menga quyvon terisidan qilingan poʻstin va uning ustidan yana: tulki terisidan qilingan kalta poʻstin kiygizishdi. Savelich ikkovimiz aravaga chiqdik, yigʻlab-siqtab joʻnadik.

Shu kuni kechasi Simbirskka keldik, bu yerda bir kun turib, lozim boʻlgan narsalarni olishimiz kerak edi; bu ishni Savelichga buyurdim. Oʻzim traktirga⁸ tushdim. Savelich ertalab barvaqt bozor qilgani ketdi. Derazadan iflos koʻchaga qarab oʻtirib zerikdim, uylarni aylangani chiqdim. Bilyard zaliga kirdim, bu yerda oʻttiz besh yoshlarda, novcha, uzun qora moʻylovli, avra toʻn kiygan, qoʻlida kiy, ogʻzida trubka bilan turgan bir barinni koʻrdim. U marker⁹ bilan bilyard oʻynamoqda, marker yutsa bir ryumka araq ichar, yutqizsa bilyard stoli ostidan emaklab



o'tar edi. Bularning o'yinini tomosha qildim. O'yin davom etgan sayin markerning emaklashi ko'paydi, oxiri stolning ostiga kirganicha chiqmay qo'ya qoldi. Barin, xuddi go'r ustida gapirayotgandek, uning sha'niga bir qancha so'z aytgandan keyin, menga bir partiya o'ynashni taklif qildi. Men bu o'yinni bil-maganimdan, taklifini qaytardim. Bu, aftidan, unga g'alati tuyuldi. U menga taassuf nazari bilan qaradi: lekin ikkovimiz gapirishib qoldik. Bu odamning nomi Ivan Ivanovich Zurin bo'lib,** gusar polkining rot-mistri, Simbirskka rekrut¹⁰ qabul qilish uchun kelib, traktirga tushgan ekan. Zurin, meni birga soldatcha ovqat qilishga – har naiki xudoning berganini baham ko'rishga taklif qildi. Men jon-dil bilan rozi bo'ldim. Ovqat yegani o'tirdik. Zurin ko'p ichar va xizmatga ko'nikish lozim ekanligini aytib, meni ham siylar edi, u armiya turmushidan turli qiziq latifalar aytib berdi, kulaverib qotib qoldim, ovqat pirovard bo'lguncha ikkimiz juda inoq bo'lib qoldik. Shunda u menga bilyard o'rgatmoqchi bo'ldi. «Bu narsa, – dedi u, – bizga o'xshagan xizmatdagi kishiga zarur. Masalan, poxodga chiqilganda bir manzilga tushadi kishi, nima qilas-an? Nuqul juhudlarni uravergan bilan bo'ladimi. Noiloj traktirga borasan, bilyard o'ynaysan; buning uchun o'ynashni bilish kerak». Uning gapi menga juda ma'qul tushdi, jon-dil bilan o'rganishga kirishdim. Zurin menga dalda berar va tez o'rganishimga hayron qolardi; bir necha o'yindan so'ng pul tikib o'ynashni taklif qildi. Quruq bo'lmasin, yarim tiyindan o'ynaylik, maqsad yutish emas, quruq o'ynashdan yomoni yo'q dedi. Bunga ham ko'ndim. Zurin bo'lsa punsh chaqirdi va xizmatga ko'nikish lozim ekanini yana aytib, meni punshdan ichib ko'rishga undadi; punsh ichilmasa, xizmatning qizig'i bo'lmaydi, dedi. Men uning gapiga kirdim. O'yinimiz ham

davom etar edi. Punshni ichganim sayin botirlana-verdim. Urganimda soqqalar stol qirg'ozqlaridan oshib, yerga tushib ketardi; tajang bo'lib markerni urishar edim, chunki o'yinni u noto'g'ri hisob qilar edi; borgan sari o'yinni oshirdim, qisqasi, o'zimni birdaniga darxonlikka chiqqan yosh boladay tutar edim. Kun kechikib qolibdi. Zurin soatiga qaradi, tayoqni qo'ydi-da, yuz so'm yutqizganligimni bildirdi. Andak xijolat bo'ldim, chunki pulim Savelichda edi. Afv so'radim. Zurin so'zimni bo'lib: «Yo'q, bemalol! Hech tashvish tortma. Keyinroq bo'lar. Hozir Arinushkaning oldiga boraylik», – dedi.

Nima deysiz endi? Bu kunni boshdan-oyoq be-mazagarchilik bilan o'tkazdim. Kechki ovqatni Arinushkanikida yedik. Zurin xizmatga ko'nikish kerak deb, dam-badam menga ichkilik quyardi. Dasturxon-dan turganda, men oyoq uzra zo'rg'a turardim: Zurin meni yarim kechasi traktirga eltib qo'ydi.

Savelich bizni eshik oldida – zinapoyada uchratdi. U xizmatga bo'lgan ixlosimning muqarrar nishonalarini ko'rib: «Obbo, xudo urdi», deb yubordi. «Senga nima bo'ldi, begim? – dedi u kuyunib. – Qayerda bu ahvolga tushding? Obbo, xudo urmasa! Umringda bunday gunoh qilmagan eding!»

– Gapirma, miyasini yegan chol! – dedim duduqlanib, – mastga o'xshaysan, kirib yot... meni ham yotqiz.

Ertalab boshim og'rib turdim. Kecha bo'lgan ishlarni zo'rg'a-zo'rga eslar edim. Choy ko'tarib kirgan Savelich o'yimni bo'ldi. «Hali erta, Pyotr Andreich, – dedi boshini chayqab, – halitdan kayfga berilsang bo'lmaydi. Sen kimga tortding? Otang ham, bobong ham piyonista emas edilar nazarimda; onang to'g'risida gapirish ham ortiqcha: umrida kvasdan



Bu tanishuv parchasidir. Asarning to'liq versiyasi
<https://kitobxon.com/oz/asar/2905> saytida.

Бу танишув парчасидир. Асарнинг тўлиқ версияси
<https://kitobxon.com/uz/asar/2905> сайтида.

Это был ознакомительный отрывок. Полную версию
можно найти на сайте
<https://kitobxon.com/ru/asar/2905>